

## **GEOGRAFIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI, ZAMONAVIY GEOGRAFIYA XONASIGA QO'YILGAN TALABLAR**

N. Sh. Shadiyeva

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

«Geografiya» kafedrasи dotsenti

Z. Rustamova,

Sh. E. Xodjaniyazova

«Geografiya» ta'lim yo'nalishi talabasi

### **Annotation:**

Ushbu maqolada maktablardagi geografiya xonalarini to'gri jihozlanishi va shu bilan birqalikda o'quvchilarda geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, zamon talablariga mos keladigan holda jihozlangan xonada o'quvchilar bilim saviyasini yanada yaxshilash haqida bir qancha ko'rsatmalar berib o'tilgan.

### **Аннотация:**

В данной статье даны некоторые указания о том, как правильно оборудовать кабинеты географии в школах и одновременно повысить интерес учащихся к географии, а также в дальнейшем повысить уровень знаний учащихся в кабинете, оборудованном в соответствии с требованиями времени.

### **Anotatsion:**

In this article, some instructions are given on how to properly equip geography rooms in schools and, at the same time, to increase students' interest in geography, and to further improve the level of knowledge of students in a room equipped in accordance with the requirements of the time.

**Kalit so'zlar:** Geografiya xonasi, Meteorologik butka, Quyosh soati, komponentlar, tabiat komplekslari, sinf burchagi.

**Ключевые слова:** Кабинет географии, Метеорологический стенд, Солнечные часы, компоненты, природные комплексы, классный уголок.

**Key words:** Geography room, Meteorological booth, Sundial, components, nature complexes, classroom corner.

Jahon ta'limalda zamonaviy va sifatli bilim berish eng muhum masalalardan biri hisoblanadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida geografiya fanini o'qitishda e'tibor berilayotgan asosiy jihat shundaki , o'quvchilarning konikma va malakalarni shakillantirishga qaratilgan. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakillantirish uchun esa albatta geografiya xonalari zamon talablariga mos bo'lgan holda jihozlanishi lozim. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda. Masalan: Kanada davlatida har bir fan xonasi mukammal darajada jihozangan shu jumladan geografiya xonasi ham, xonada o'quvchilarga qulay bo'lgan parta va stullar, har bir parta ustida esa globuslar, doska, sinf devorlarida dunyo xaritalari, shu kabilar bilan jihozlangan.

Hozirgi kunda bizning yurtimiz O'zbekistonda ham chet el tajribalaridan foydalanimanligi holda ta'lif berilmoqda. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarga tabiat va jamiyat haqida bilim beriladi. Olingen bilimlar asosida o'quvchilarda geografik dunyoqarash shakillanadi, tafakkur va bilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu vazifalarning katta ulishi esa maktabdagi geografiya fani zimmasiga tushadi. Maktab geografiyasi o'quvchilarni tabiatning asosi komponent (tarkibiy qism)lari va tabiat komplekslari bilan tanishtiradi.

O'quvchilar maktabda geografiyani o'rganar ekanlar, o'zlari hali bilib ulgurmagan hodisalar bilan tanishadilar va ularning mohiyatini tushunishga harkat qiladilar. Maktab geografiyasining ta'lifi vazifikasi-umumiy ta'lifning tarkibiy qismi bo'lgan geografiya fani asoslarini o'quvchilar puxta egallab olishlarini ta'minlashdan hamda o'quvchilarni hayotda zarur bo'lgan ko'nikama va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Biz bilamizki hozirgi kunda tabiiy fanlarni o'qitish dolzarb muammoga aylangan. Shu jumladan geografiya fanini ham o'quvchilarga yuksak saviyada o'rgatish uchun maktablarimizda geografiya xonalarini tashkil etib, xonalarni esa zamon talablariaga mos keladigan darjada jihozlashimiz lozim.





### **1-rasm. Rivojlangan davatlardagi geografiya xonalari**

Bizning yurtimizda ham hozirgi kunda shunday geografiya xonalarini tashkil etishimiz uchun quyidagi jihozlardan foydalanishimiz mumkin:



Shu kabi jihozlardan foydalangan holda geografiya xonasini jihozlashimiz mumkin. Geografiya xonasining burchaklarida o'quvchilar nazariy olgan bilimlarini amalda ham ko'rishlari uchun har xil sinf burchaglari tashkil etish ham mumkin.

Masalan: Tabiatda bo'ladigan hodisalarni o'quvchilar ko'z oldida gavdalanishi uchun maketlardan foydalangan holda sinf burchagini bezash misol uchun: sinfnинг bir burchagida vulqon otilish jarayonini turli xil maketlar yordamida tasvirlash mumkin. Bu esa o'quvchilarning ko'z o'ngida o'sha jarayon shakillanishida yordam beradi va bilim darajasi ham yuqoriroq bo'ladi.

Xona shunday jihozlansa o'rganilayotgan material to'g'risida ancha to'g'ri haqiqatga yaqin tasavvurlar berib, o'quvchilarda bevosita qabul qilish asosida geografiya tushunchalari hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Shunga ko'ra geografiya xonasida jonli tabiatni o'rganish uchun imkon yaratiladi. Jonsiz tabiatni organishda ham tabiiy tarqatma materiallar, har xil rangdagi granit, sluda, kvars, loy, qum, kalsiy, tuz, toshkomir, temir, mis, rudalarning namunalari, shuningdek metallar hamda qotishmalar bolishi kerak. O'quvchilarda bevosita qabul qilish mumkin bo'limgan tabiat jismlari va hodisalari togrisida aniq va to'g'ri tasavvurlar hosil qilish uchun ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish kerak. Fan xonasida ko'rgazmali qurollar, asbob- uskunalar, mebellar moslamalar bilan jihozlangan o'quv xonalari buyumlar, ko'rgazmali qurollarni tayyorlash uchun hozirgi zamon materiallaridan foydalanish, ularning o'z vazifasiga ko'ra uzoq xizmat qilishga chidaydigan bo'lishi lozim.

Ma'lumki geografiya darslarini qiziqarli, ta'sirchan o'tkazish uchun mifik geografiya xonalari katta ahamiyatga ega. Geografiyanı o'qitish tirik o'simlik va hayvonlar ustida ko'rgazmali va amaliy metodlami qo'llanishi asosida mashg'ulotlar o'tkazishga imkon beradigan moddiy bazani tashkil etishni talab qiladi. Geografiya xonasida jonli va jonsiz tabiat bo'yicha kerakli jihozlar mavjud bo'lishi kerak. Geografiya xonasini jihozlash, ko'rgazmali qurollar saqlash tizimini ishlab chiqish, darslarda o'qituvchiga yordam berish - bularning hammasi o'quvchilarda tashkiliy o'quv va mehnat madaniyatini tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Biz maktablardagi geografiya xonalarini shunday jihozlar ekanmiz, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirib shu bilan birgalikda bilim darjalarini yanada yaxshilashimiz mumkin. Bu bilan biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishgan bo'lamiz.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Sh.Shadiyeva “Maktabda Geografiya ta’limi” o‘quv uslubiy qollanma “Durdona” nashriyoti Toshkent.sh 2024-yil.
2. N.Sh.Shadiyeva “Dasturiy ta’lim vositalardan foydalanish asosida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati”. Pedagogik akmeologiya ilmiy-nazariy, metodik jurnalni. Buxoro.sh. 2023-yil.-B. 59-62.(13.00.00).
3. N.Sh.Shadiyeva “Ilm sarchashmlari”. Ilmiy-nazariy, metodik jurnalni. 2023 y. № 10. Urganch sh. 96-99 b. (13.00.00; № 31).

